| <i>Заболотина Анна Анатольевна</i>                                                                                                                                |     |
| Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi .....                                     | 802 |
| <i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>                                                                                                                            |     |
| Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini .....                                                                          | 807 |
| <i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>                                                                                                        |     |
| Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....                                                       | 810 |
| <i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>                                                                                                                        |     |
| Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....                                     | 814 |
| <i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>                                                                                               |     |
| Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi .....                                                    | 819 |
| <i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>                                                                                   |     |
| Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari .....                                                                                             | 823 |
| <i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>                                                                                                                           |     |
| Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....                           | 829 |
| <i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>                                                                                                                             |     |
| Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni .....                                             | 836 |
| <i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>                                                                                                                    |     |
| O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar .....                                                               | 841 |
| <i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>                                                                                                                         |     |
| Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar .....                     | 846 |
| <i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>                                                                                                                            |     |
| O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati .....                                                                  | 853 |
| <i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>                                                                                                                       |     |
| Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку .....                                                   | 857 |
| <i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>                                                                                                                              |     |
| Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....                                                       | 861 |
| <i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>                                                                                                                             |     |
| STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....                                                                    | 867 |
| <i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>                                                                                     |     |
| Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....                                      | 871 |
| <i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>                                                                                                                       |     |

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish .....                                                           | 874 |
| <i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>                                                                                                      |     |
| Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari..... | 879 |
| <i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>                                                                                                    |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari .....                                            | 883 |
| <i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>                                                                                                          |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli .....                | 887 |
| <i>G'ofurova Sh. M.</i>                                                                                                                       |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati .....                                       | 892 |
| <i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>                                                                                                      |     |
| Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari .....                                                            | 895 |
| <i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>                                                                     |     |
| Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati .....                                                                       | 898 |
| <i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>                                                                                                          |     |
| Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone .....                                                                                              | 901 |
| <i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>                                                                               |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....                                                       | 905 |
| <i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>                                                   |     |
| Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari .....               | 910 |
| <i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>                                                                                                          |     |
| Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari .....                                                 | 914 |
| <i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>                                                                                                   |     |
| Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....                              | 918 |
| <i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>                                                                                                         |     |
| Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari .....                                | 922 |
| <i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>                                                                                                      |     |
| Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....                                         | 926 |
| <i>Sodikova Odinaxon Abdugapporovna</i>                                                                                                       |     |
| Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...                               | 930 |
| <i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>                                                                                                       |     |
| G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish .....                         | 934 |
| <i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>                                                                                                        |     |
| Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....                                                                | 938 |
| <i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>                                                                              |     |
| Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi .....                | 941 |
| <i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>                                                                            |     |
| Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati .....                                                                     | 945 |
| <i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>                                                                                                      |     |
| 6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish .....                                                    | 949 |
| <i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>                                                                                 |     |
| Local Anesthesia and Conduction Anesthesia .....                                                                                              | 952 |
| <i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>                                                                                                |     |
| Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию .....                                            | 957 |
| <i>Плиева Руслана Владимировна</i>                                                                                                            |     |



# ZAMONAVIY BAHOLASH TEKNOLOGIYALARI VA XORIJIY TAJRIBA (BOSHLANG'ICH SINF "ONA TILI" DARSLARI MISOLIDA)

A'zamqulova Zilola Sunnat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)  
mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy baholash texnologiyalari, xususan, rubrik baholash tizimining nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlar tajribasi (AQSh, Finlyandiya, Kanada va boshqalar) misolida boshlang'ich ta'lim jarayonida baholashning samarali yondashuvlari o'rganiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida rubrik baholashni joriy etish jarayoni, uning afzalliklari va muammolari chuqur yoritiladi. Tadqiqot boshlang'ich sinf "Ona tili" darslarida rubrikalardan foydalanishning usullari, mezonlari va natijalarini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** baholash texnologiyalari, rubrik tizimi, xorijiy tajriba, boshlang'ich ta'lim, ona tili, kompetensiyaga asoslangan yondashuv.

**Abstract:** This article analyzes modern assessment technologies, with a particular focus on rubric-based evaluation. It explores the theoretical foundations and practical implementation of rubrics in primary education, drawing on international experience (USA, Finland, Canada, etc.). The paper also examines the process of introducing rubrics into the education system of Uzbekistan, highlighting both its advantages and existing challenges. The study reveals the methods, criteria, and outcomes of applying rubrics in primary school "Mother Tongue" lessons.

**Key words:** assessment technologies, rubric system, international experience, primary education, mother tongue, competence-based approach.

**Аннотация:** В статье анализируются современные технологии оценивания, в частности система оценивания с использованием рубрик. Рассматриваются теоретические основы и практическое применение рубрик в начальном образовании на примере зарубежного опыта (США, Финляндия, Канада и др.). Подробно освещается процесс внедрения рубрик в систему образования Узбекистана, а также его преимущества и существующие проблемы. Исследование раскрывает методы, критерии и результаты применения рубрик на уроках "Родного языка" в начальных классах.

**Ключевые слова:** технологии оценивания, система рубрик, зарубежный опыт, начальное образование, родной язык, компетентностный подход.

## KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim tizimida o'quvchilar bilimini baholashda an'anaviy yondashuvlardan zamonaviy baholash texnologiyalariga o'tish jarayoni jadallashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son<sup>1</sup> farmoni va "2030-yilgacha xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi"da baholashning xalqaro mezonlarga moslashuvi alohida belgilangan. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan "Ona tili" fani o'quvchilarning nutqiy madaniyati, fikrlash layoqati va savodxonligini shakllantiradi.

Ushbu fan bo'yicha o'quvchilarning yutuqlarini baholash samarali bo'lmasa, ularning boshqa fanlardagi muvaffaqiyati ham xavf ostida bo'ladi. Shuning uchun ona tili darslari misolida baholash amaliyotini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Baholash texnologiyalari o'quvchilar bilimini nazorat qilish vositasi emas, balki ularning o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beruvchi mexanizm sifatida qaralishi lozim. Xorijiy tajribada asosiy urg'u o'quvchining individual rivojlanishiga qaratilgani kuzatiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimini baholash samaradorlik va natijadorlikni oshirishning muhim omilidir. An'anaviy baholash usullari o'quvchining faqat tayyor natijasini ko'rsatib, jarayonni to'liq yoritib bera olmaydi. Shuning uchun dunyo tajribasida, xususan, AQShda rubrik baholash tizimi keng qo'llaniladi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim tizimida baholash jarayoni o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini aniqlash bilan bir qatorda, ularning o'rganish jarayonini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida qaralmoqda. Ilmiy adabiyotlarda mezonli baholash, ayniqsa, rubrikalar asosida baholash texnologiyalari samarali baholash vositasi sifatida keng yoritilgan. Andrade baholash jarayonida rubrikalardan foydalanish o'quvchilar uchun o'quv maqsadlarini aniq tushunishga yordam berishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, rubrikalar o'quvchilarga bajarilayotgan topshiriqdan qanday natija kutilayotganini ko'rsatadi hamda o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning matnni tushunish, fikrni ifodalash va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi (Andrade, 2005).

Brookhart rubrikalarni formatif baholashning samarali vositasi sifatida ko'rib chiqadi. Uning tadqiqotlarida rubrikalar baholash jarayonini shaffof va obyektiv tashkil etishga yordam berishi asoslab berilgan. Olim rubrikalarni ishlab chiqishda aniq mezonlar, baholash darajalari va izohli tavsiflardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa o'quvchilarning bilimni chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratadi (Brookhart, 2013). Moskal esa rubrikalarni baholash jarayonida qo'llash metodikasini tahlil qilib, ularni topshiriq mazmuniga mos holda ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Olim rubrikalar yordamida o'quvchilarning ijodiy va analitik faoliyatini baholash imkoniyati kengayishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, rubrikalar baholashda subyektivlikni kamaytirishga xizmat qiladi (Moskal, 2000).

Xorijiy ta'lim tizimlarida baholash jarayoni o'quvchilarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Finlandiya ta'lim tizimi bu borada ilg'or tajribaga ega. Sahlberg Finlandiya maktablarida baholash tizimi o'quvchilarning rivojlanish jarayonini kuzatishga yo'naltirilganini ta'kidlaydi. Ushbu tizimda baholash natijadan ko'ra o'quv jarayoniga e'tibor qaratadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi (Sahlberg, 2015). Finlandiya tajribasida o'qituvchilar o'quvchilarga muntazam fikr-mulohaza berib boradilar. Baholash ko'proq diagnostik va rivojlantiruvchi xarakterga ega. Bu yondashuv boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning psixologik holatini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, rubrikalar asosida baholash boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Rubrikalar yordamida o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matnni tahlil qilish, mazmunni tushunish hamda yozma nutqni shakllantirish jarayoni tizimli baholanadi.

Andrade va Brookhart tadqiqotlari rubrikalar o'quvchilarda refleksiya, o'z faoliyatini tahlil qilish va natijalarni baholash ko'nikmalarini shakllantirishini ko'rsatadi. Moskal esa rubrikalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida baholash mezonlarini bir xil tushunishga yordam berishini ta'kidlaydi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida rubrikalar quyidagi yo'nalishlarda samarali qo'llanilishi mumkin:

- o'qish savodxonligini baholash;
- matn mazmunini tahlil qilish;
- og'zaki nutqni baholash;
- yozma ishlarni baholash;
- ijodiy topshiriqlarni baholash.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar zamonaviy baholash texnologiyalarida rubrikalar muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Andrade, Brookhart va Moskal tadqiqotlari rubrikalar o'quvchilarning bilimni obyektiv baholash, refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim jarayonini individuallashtirishga xizmat qilishini asoslaydi. Sahlberg tomonidan tahlil qilingan Finlandiya tajribasi esa baholash jarayonini rivojlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ushbu baholash texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy baholash texnologiyalarini joriy etish hamda xorijiy tajribalarni o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi hamda formativ baholash nazariyalari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish hamda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar asos qilib olindi. Shuningdek, mezonli baholash texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilar bilimni obyektiv baholash masalalari o'rganildi. Tadqiqot



maqsadi – boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy baholash texnologiyalarini qo'llash samaradorligini aniqlash va xorijiy tajribalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

- zamonaviy baholash texnologiyalarining nazariy asoslarini o'rganish;
- rubrikalar asosida baholashning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish;
- xorijiy ta'lim tizimlarida baholash texnologiyalarining qo'llanilishini o'rganish;
- boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy baholash usullarini joriy etish;
- tajriba-sinov ishlari orqali baholash texnologiyalarining samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** – boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi o'quv jarayoni.

**Tadqiqot predmeti** – boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy baholash texnologiyalarini qo'llash jarayoni.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy metodlar** – pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, xorijiy tajribalarni solishtirma tahlil qilish, baholash texnologiyalariga oid ilmiy qarashlarni umimlashtirish.
2. **Empirik metodlar** – pedagogik kuzatuv, so'rovnomalar va suhbat, tajriba-sinov ishlari, o'quvchilar bilimining diagnostik baholash.
3. **Statistik metodlar** – olingan natijalarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish, tajriba natijalarini taqqoslash, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy baholash texnologiyalari, xususan, rubrikalar asosida baholash usullari joriy etildi. O'quvchilarning o'qish savodxonligi va nutqiy kompetensiyalari o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi – boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy baholash texnologiyalarini qo'llash modeli ishlab chiqildi, rubrikalar asosida baholashning metodik imkoniyatlari asoslab berildi, xorijiy tajribalar milliy ta'lim tizimiga moslashtirildi.

Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin. Ishlab chiqilgan baholash texnologiyalari o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Rubrik baholash tizimi – bu o'quvchilar ishini aniq mezonlar asosida baholash vositasi bo'lib, u nafaqat natijani, balki o'quvchining bilim olish jarayonini ham ko'rsatadi.<sup>2</sup> U o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan, o'quvchining ma'lum topshiriqni bajarish darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ko'rsatkichlar majmuasidan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mezonlar – o'quvchi ishida baholanishi kerak bo'lgan jihatlar;
- darajalar – har bir mezon bo'yicha erishilgan yutuq bosqichlari;
- tavsif – har bir darajaning aniq izohi.

Masalan, matn yaratish vazifasi uchun mazmun, tuzilma, imlo, uslub kabilarni mezon sifatida olish mumkin. Har bir mezon 4 darajaga bo'linadi: a'lo, yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz. Rubrik baholash tizimining quyidagi turlari mavjud:

- analitik rubrik baholash tizimi – topshiriq turli mezonlarga ajratilib, har biri alohida baholanadi. Masalan, "Ona tili" darsida matn yaratish uchun mazmun (5 ball), imlo (5 ball), uslub (5 ball) mezonlari ajratilishi mumkin;
- yaxlit rubrik baholash tizimi – o'quvchi ishi umumiy taassurot asosida yagona baho bilan baholanadi. Masalan, "She'r ifodali o'qildi" – umumiy 5 ball;
- maxsus rubrik baholash tizimi – aniq bir topshiriqqa mos holda ishlab chiqiladi. Masalan, "Rasm asosida matn tuzing" vazifasi uchun maxsus rubrik qo'llaniladi;
- umumiy rubrik baholash tizimi – turli topshiriqlar uchun mos keladigan umumiy mezonlarga asoslanadi. Masalan, nutqiy ko'nikma, ijodkorlik, fikrni mantiqiy ifodalash.

<sup>2</sup> Andrade, H. (2005). Teaching with Rubrics



Rubrik baholash tizimi AQSh ta'lim tizimida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng qo'llanila boshlagan, hozirgi kunda esa deyarli barcha fan va bosqichlarda asosiy baholash vositasiga aylangan. Tizim nafaqat universitetlarda, balki boshlang'ich va o'rta maktablarda ham qo'llaniladi hamda Rubrics Common Core State Standards (CCSS) talablariga asoslanadi.

Rubrik baholash tizimining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quvchiga aniq maqsadni ko'rsatadi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida shaffoflikni ta'minlaydi;
- ota-onaga bolaning rivojlanishini kuzatishda yordam beradi;
- ta'lim jarayonini diagnostika qiladi, ya'ni faqat natijani emas, jarayonni ham ko'rsatadi.

Rubrik baholash tizimining afzalliklari:

- aniqlik – o'quvchi qaysi mezon bo'yicha qanday baholanishini biladi;
- motivatsiya – o'quvchi yuqori darajaga erishish uchun ko'proq intiladi;
- adolat – baholash subyektiv emas, balki mezonlarga asoslangan;
- rivojlanish imkoniyati – o'quvchi o'z kamchiliklarini ko'rib, keyingi ishida ularni to'g'rilashi mumkin.

Ona tili darslarida diktant, bayon, insho, ijodiy ishlar yaratishda imlo va punktuatsiya, matnning mantiqiy tuzilishi, fikrning ravonligi, ijodkorlik elementi kabilarni mezon sifatida olish mumkin. Masalan, o'quvchilarga matn yaratish topshirig'i berilganda, quyidagi rubrikadan foydalanib baholash mumkin.

1-jadval: **Rubrik baholash tizimi**

| Mezon/Daraja                | 5 ball                                                                                                 | 4 ball                                                                            | 3 ball                                                                                      | 2 ball                                                                                      | 1 ball                                                       |
|-----------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| <b>Imlo va punktuatsiya</b> | Imloviy va punktuatsion xatolar deyarli yo'q.                                                          | Imlo va tinish belgilari bilan bog'liq bir nechta kichik xatolar mavjud.          | Imloviy va punktuatsion jihatdan bir nechta sezilarli xatolar mavjud.                       | Imlo va tinish belgilari bilan bog'liq xatolar tez-tez uchraydi va aniqlikka ta'sir qiladi. | Xatolar tufayli tushunishda jiddiy xatolar yuzaga keladi.    |
| <b>Mantiqiy tuzilish</b>    | Bajarilgan ish aniq va mantiqiy boshlanish, o'rta va oxirgi qismlar bilan juda yaxshi tashkil etilgan. | Ish yaxshi yozilgan, asosan, mantiqiy tuzilish va oqimda kichik kamchiliklar bor. | Boshlanish, o'rta va yakuniy qismlar mavjud, ammo aniqlikka ta'sir qiladigan muammolar bor. | Bajarilgan ishda aniq tuzilma yo'q, tez-tez uzilishlar uchraydi.                            | Ishda mantiqiy bog'lanish mavjud emas, kuzatib borish qiyin. |
| <b>Ijodkorlik</b>           | Qiziqarli va xayoliy g'oyalar mavjud, o'ziga xos va aniq ishlab chiqilgan syujetga ega.                | Yaxshi originallik va ba'zi qiziqarli g'oyalar mavjud, aniq syujetga ega.         | O'ziga xoslikni ko'rsatadi, lekin syujetda aniqlik yetarli emas.                            | O'ziga xoslik va g'oyalar kam, syujet yo'q.                                                 | O'ziga xoslik va syujet yo'q, g'oyalar juda noaniq va kam.   |

Rubrik baholash tizimini amalda joriy etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- maqsadni aniqlash – baholash nimaga xizmat qilishi kerakligini belgilash;
- mezonlarni ishlab chiqish – aniq, o'lchanadigan ko'rsatkichlarni yaratish;
- darajalarni belgilash – o'quvchi ishini 3-5 bosqichli shkalada ta'riflash;
- o'quvchi bilan tanishtirish – baholash mezonlari dars boshida tushuntirilishi kerak;
- baholash jarayonida qo'llash – topshiriqlarni mezonlar asosida tahlil qilish;
- tahlil va mulohaza – o'quvchiga kuchli va kuchsiz tomonlari haqida izoh berish.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, rubrik baholash tizimining naqadar keng qo'llanilishiga amin bo'lamiz. Jumladan, AQShda rubrik baholash tizimi eng keng qo'llaniladigan baholash usullaridan biri hisoblanadi va dars jarayonida yozma ishlardan tortib, og'zaki hamda loyiha ishlarini baholash jarayonlarigacha qo'llaniladi.



Kanadada har bir fan uchun standartlashtirilgan rubrik baholash tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u o'quvchilarning kompetensiyalarini bosqichma-bosqich kuzatish uchun xizmat qiladi. Buyuk Britaniya boshlang'ich maktablarida bu tizim "assessment criteria" deb yuritiladi va yozma savodxonlik, og'zaki nutq, ijodiy yozuv hamda o'qish malakasini baholashda qo'llaniladi. Avstraliya milliy ta'lim dasturida rubrik baholash tizimi asosiy baholash vositalaridan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, unda ko'proq formativ baholashga urg'u qaratiladi.

Finlandiyada "ko'nikma va malakalarni rivojlantirish"ga yo'naltirilgan mezonlar asosida rubrik baholash tizimi keng joriy etilgan bo'lib, u summativ baholashdan ko'ra o'quvchini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Singapurda matematika va til darslarida o'quvchilarning fikrlash jarayonini kuzatish uchun rubrik baholash tizimi keng tatbiq etiladi.

Yaponiyada ham an'anaviy baholash usullari bilan bir qatorda rubrik baholash tizimi asta-sekin qo'llanilmoqda, ayniqsa, ingliz tili va ona tili darslarida. Janubiy Koreyada boshlang'ich sinflardan boshlab loyihaviy ishlar, yozma topshiriqlar hamda nutqiy faoliyatni baholashda rubrik baholash tizimi keng qo'llaniladi. Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya, Fransiya va Niderlandiyada turli baholash shakllarida, ayniqsa o'qish savodxonligini baholashda rubrik baholash tizimi qo'llaniladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida baholashning zamonaviy shakllari joriy qilinmoqda. Ayniqsa, kompetensiyaga asoslangan Davlat ta'lim standarti (DTS) qabul qilingandan so'ng baholash mezonlari sifatida rubrikalardan foydalanish yo'lga qo'yildi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti va unga mos o'quv dasturlarida o'quvchilarni faqat yakuniy natija bo'yicha emas, balki jarayonni kuzatish orqali baholash talabi kiritilgan. Baholash mezonlari (rubrikalar) 1-4-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida maxsus ko'rsatmalar shaklida berilgan. Milliy baholash markazi ham sinovlarda rubrik baholash tizimi elementlaridan foydalanishni tavsiya etmoqda. Boshlang'ich sinf "Ona tili" darslarida rubrik baholash tizimidan foydalanish:

- o'quvchiga baholash mezonlarini oldindan bilish imkonini beradi;
- o'qituvchi uchun shaffof va tizimli baholashni ta'minlaydi;
- ota-onaga bolaning individual rivojlanish bosqichlarini ko'rsatadi;
- o'quvchilarni xalqaro mezonlarga yaqinlashtiradi.

Yozma ishlarda

- o'quvchilarni imlo, uslub, mazmun va grammatik to'g'rilik mezonlari asosida;
- og'zaki nutqda ifodalilik, to'g'ri talaffuz, so'z boyligi, mantiqiy izchillik mezonlari bo'yicha;
- matn tahlilida savollarga javob berish, asosiy g'oyani topish, personajlarga baho berish, o'z fikrini asoslash mezonlari asosida;
- ijodiy topshiriqlarda hikoya tuzish, ertakni davom ettirish, maqolni izohlash mezonlari asosida rubrik baholash tizimi qo'llanilmoqda.

Ayrim maktablarda o'qituvchilar ushbu tizimdan samarali foydalanmoqda, ammo hali ham ko'p hollarda an'anaviy 5 ballik tizim ustunlik qilmoqda.

O'quvchi va ota-onaga ochiq mezonli baholashni (ya'ni "Nega bu baho qo'yildi?" degan savolga tushunarli javob berishni) ta'minlash uchun rubrik baholash tizimining qo'llanishini kengaytirish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini tekshiruvchi PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik doirasida ham ushbu baholash tizimiga alohida urg'u berilmoqda, ammo hali ham ayrim muammolar mavjud:

- hamma o'qituvchilar rubrikani to'g'ri tuzib, undan samarali foydalana olmayapti;
- ba'zida rubrik baholash tizimi ko'proq formallikka aylanib qolmoqda;
- resurslar (namunaviy rubrikalar to'plami, metodik qo'llanmalar) yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Bu muammolar o'z yechimini topishi uchun xalqaro tajriba (AQSh, Finlandiya, Kanada) asosida rubrik baholash tizimini milliy dasturlarga moslashtirish lozim. O'qituvchilar uchun maxsus seminar-treninglar tashkil etilishi, metodik qo'llanmalar hamda rubrikalar to'plamlari yaratilishi kerak.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, AQSh, Finlandiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda rubrik baholash tizimi ta'lim sifatini oshirishda keng qo'llanilib, o'quvchilarda adolatli baholashga nisbatan ishonchni mustahkamlamoqda. Boshlang'ich ta'limda rubrikalardan foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniq, shaffof hamda tizimli baholash imkonini beradi. Bu tizim nafaqat o'qituvchi uchun samarali baholash



vositasi, balki o'quvchi uchun ham o'z yutuqlari va kamchiliklarini ko'rib, keyingi o'quv jarayonida o'zini rivojlan-tirishga yordam beruvchi ko'rsatkich hisoblanadi. O'zbekistonda ham rubrik baholash tizimini amaliyotga keng joriy etish orqali ta'lim sifatini xalqaro talablar darajasiga ko'tarish, PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Andrade, H. (2005). Teaching with Rubrics: The Good, the Bad, and the Ugly. Educational Leadership, 62(2), 27-31.
2. Brookhart, S. M. (2013). How to Create and Use Rubrics for Formative Assessment and Grading. Alexandria, VA: ASCD.
3. Moskal, B. M. (2000). Scoring Rubrics: What, When and How? Practical Assessment, Research & Evaluation, 7(3).
4. Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? New York: Teachers College Press.
5. Black, P., & William, D. (1998). Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education, 5(1), 7-74.
6. Stiggins, R. (2005). From Formative Assessment to Assessment FOR Learning: A Path to Success in Standards-Based Schools. Phi Delta Kappan, 87(4), 324-328.
7. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge.
8. Shepard, L. A. (2000). The Role of Assessment in a Learning Culture. Educational Researcher, 29(7), 4-14.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.